
Hokimlik qabuli: Har bir murojaat – e'tiborda!

Kecha Xalq qabulxonasi binosida tuman hokimining navbatdagi fuqarolar qabuli o'tkazildi. Qabulda muammosi va murojaati bo'lgan fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlashib, murojaatlar birma-bir tinglandi. Ochiq va samimiy muloqot tarzida kechgan qabulda tuman hokimi o'rinbosarlar, Xalq qabulxonasi mudiri va tumandagi mutasaddi tashkilot rahbarlari ishtirokida uy-joy, moddiy yordam, bandlik, yo'l ta'miri va boshqa masalalarga oid murojaatlar kelib tushdi. Muammolar bo'yicha tegishli tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida zarur choralar ko'rildi. Qabulda 15 nafar fuqarolar ishtirok etib, shulardan 7 nafarining masalasi shu joyning o'zida hal etilgan bo'lsa, 5 ta masalaga huquqiy tushuntirish berilib, qolgan masalalar ijroga qaratildi. Ta'kidlangandek, har bir murojaat asoslicha o'rganilib chiqiladi va qonuniy yo'l bilan yechimini topadi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-10-14 14:48:34